

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғууалық берилген.*

Нөкис



Davronova F.L. Kimyo fanini o'rganishda imitatsion modellardan foydalanish afzalliklari (virtual laboratoriya misolida)	156
Muhammadiyeva M.M. Шахс масъулияти муаммоси ахлоқий категория сифатида	160
Yuldoshev J.T. O'quvchi talabalar o'rtasida steam ta'limni tatbiq etish texnologiyasi	164
Ashurova S.A. Jamiyat hayotida pedagogning maqomi ta'lim, imtiyozlar va natija	168
Hasanova S.K. PIRLS hikoyalari orqali tarbiyaviy jarayonni tashkil etish metodikasi	172
Nyutonova X.L. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasini o'rni	179
Rajabova G.Yu. O'qituvchi faoliyatida mediasavodxonlikning ahamiyati va dolzarbligi	184
Ismoilova Sh.N. Hirs va ta'magirlik hamda qanoatning talabalar ruhiy tarbiyasiga ta'siri	190
Kamolov I.B. Talabalarining kreativ loyihalash faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yisha adabiyotlarni tahlili	195
Ogaev X.C. Ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari ўқитувчиларининг касбий компетентлигини узлуксиз ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари	201
Эшанова М.Ю. Бўлажак иктисодчиларда касбий компетенцияларнинг шакллантиришнинг педагогик асослари	205
Avezov D.S. Masofaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda boshlang'ich ta'lim talabalarining kasbiy shakllanishi	209
Ботиров Х.Х. Таълим соҳасида рақобатбардошликка эришиш учун таълим муассасасининг стратегиялари	216
Raxmatullayeva A.Q. Biologiya o'qitishda o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish	224
Ботиров О.Қ. Олий таълимда масофавий таълимда ташкил этиш ижтимоий зарурат сифатида	229
Рўзиев Ф.Ж. Олий таълимда сифат ва самарадорликни баҳолаш механизмлари	224
Savriyeva I. B. Uzluksiz ekologik ta'limning didaktik tamoyillari	239
Rahimova M.A. O'quvchilarda empatiyani shakllantirish usullari	244
Umrzoqova S.X. Talabalarda kinetik intellektni rivojlantirishga oid sharq va g'arb olimlarining pedagogik-psixologik qarashlari	250
Yuldasheva N.N. Talabalarining tarixiy o'lkashunoslik va turizm ta'limida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish xususiyatlari	255
Нуруллаева Ш.У. Педагогик таълим ва касбий тайёргарликнинг замонавий моделлари	260
Boyqobilova N.U. Sinergetik yondashuv asosida talabalarda liderlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	263
Allambergenov H., Normengliyeva D.B. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda is'hoqxon ibrat hayoti va ijodini o'rgatish usullari	268
Zikriyev Z.M. Talabalar faoliyatini innovasion boshqarish asosida iqtisodiyotni rivojlantirish ga ta'sir etuvchi omillar	278
Махмудова Д.Б. Талабаларда мустақил таълим самарадорлигини оширишда медиатаълим воситаларини қўллаш аҳамияти	285
Бектурдиев Қ.Б. Мактаб директорининг бошқарув компетенциясининг услубий ва ижтимоий-психологик жиҳатлари	289
Kurbanbayev I. 4K tamoyili asosida ingliz tilidan o'quvchilarning kolloborativ ko'nikmalarini rivojlantirish paradigmasi	294
Джумагулов З.У., Аvezov Б. Д., Назарбеков К.К. Олий таълим муассасалари иқтидорли талабаларнинг тадқиқотчилик салоҳиятини моҳияти	302
Djurabekov E.T. O'qituvchilarning ta'lim jarayonida kreativ salohiyatini oshirish masalalari	311
Roximova N.E. Innovatsion ta'lim usullari va texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llanilishi	315
Axunjonov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida shaxmatni o'qitish tamoyillari	324
To'liqinova X.T. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning kasbiy qiziqishlarini ahamiyati	329
Jabborova D. S., Bayjonov F.B. Talabalarda gender madaniyatni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari	333
Egamberdiyeva M.Sh., Bayjonov F.B. Oliy talim muassasalarida xodimlarning gender madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari	342



BIOLOGIYA O'QITISHDA O'QUVCHILARNING AMALIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Raxmatullayeva A.Q.

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti
p.f.f.d(PhD)*

Tayanch so'zlar: maktab, biologiya, dars, loyiha, pedagogika, mashg'ulot, integrasiya, kompetentlik, vosita.

Ключевые слова: школа, биология, урок, проект, педагогика, обучение, интеграция, компетентность, инструмент.

Key words: school, biology, lesson, project, pedagogy, training, integration, competence, tool.

Maktab biologiya kursini o'qitishdan maqsad o'quvchilarni faqat bilimlar bilan emas, shu bilan bir qatorda ularda o'quv ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat. Bu sohada amaliy mashg'ulotlarni olib boorish nihoyatda muhim sanaladi. Shuni e'tiborga olgan holda A.M.Qodirov "Odam fiziologiyasidan amaliy mashg'ulotlar", A.M.Qodirov, K.Haydarov "Biologiya o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" kabi qo'llanmalarni nashr etdilar[1].

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. O'qituvchining ko'rsatma berishi.
2. O'qituvchining o'quvchilar faoliyatining sinash bosqichi
3. O'quvchilarning faoliyati bosqichi
4. O'quvchilar faoliyatini baholash bosqichi

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etishda nimalar qilish kerak:

1. O'quvchilarga tanlash huquqini berish kerak:
 - a) O'qish shaklida
 - b) Faoliyat turida
 - v) Nazorat shaklida



g) Natijalarni taqdim etishda

2. O'qituvchi amaliy faoliyatni muvofaqiyatli tashkil etish uchun

a) Moslashuv uchun vaqt ajrating

b) Maqsadni belgilang

c) Erkinlik bering

d) To'g'ri baholang

e) Rag'batlantiring

Amaliy faoliyatda o'quvchi darslik bilan ishlaydi, laboratoriya ishlari olib boradi, loyiha ishlarini tashkillashtiradi, tadqiqot ishlarini olib boradi[2].

Darsliklar bilan ishlashda o'quvchilar ilgari darsliklardan uyda bilimlarini mustahkamlash uchun foydalangan bo'lsalar, maktab rivojlanishining hozirgi bosqichida esa ulardan yangi material bayon qilinishi bilanoq foydalanishmoqda. O'quvchi kitob bilan muvaffaqiyatli ishlay olishi uchun tegishli ko'nikma va malakalarni egallashi kerak. Ta'limning hozirgi bosqichida o'quvchilarga darslik bilan mustaqil ishlashni o'rgatish o'qituvchining muhim vazifasidir. Binobarin, ular kelajakda turli bilimlarni o'zlaricha tahlil qilishga, o'rganishga va umumlashtirishga ham majbur bo'ladilar. Darsliklar bilan ishlashda: 1. muammoni aniqlanadi, 2. Yangi bilimlarni kashf etiladi, 3. Yangi bilimlarni qo'llaniladi, 4. Muhokama qilinadi va xulosa chiqariladi.

Darsliklar bilan ishlashda O'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo'ladi[3].

Amaliy mashg'ulotlarni qanday tashkil qilish kerak? O'quvchilarda amaliy faoliyat tajribalarini shakllantirish uchun ular o'quv materialini mustaqil ravishda o'zlashtirishlari, o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida muammolarni idrok etishi, tasavvur qilishi, abstrakt fikr yuritishi, o'rganilayotgan obyektlarni tahlil va sintez qilishi, taqqoslashi, o'xshashlik va umumiy tomonlarini aniqlashlari, fikr va g'oyalarni umumlashtirib, xulosa yasash orqali bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni o'rganishlari lozim.

O'quv dasturida «Turning morfologik mezonlari bilan tanishish», «O'simliklarda idioadaptatsiyani o'rganish» mavzulari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish ko'zda tutilgan. Ushbu amaliy mashg'ulotlarining didaktik maqsadi o'quvchilarning tegishli mavzulari bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliyotga qo'llashga o'rgatish orqali samaradorlikka erishish sanaladi. Amaliy mashg'ulotlari quyidagi bosqichlar asosida tashkil etildi.

I. O'quvchilarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.



II. O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va ularga o'quv topshiriqlarini tavsiya etish.

III. O'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etish.

IV. Kichik guruhlarning o'quv topshiriqlari yuzasidan axborotini tinglash.

V. Amaliy mashg'ulotini yakunlash.

O'quv dasturidan o'rin olgan sun'iy tanlash[4]

Fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali o'quvchilarning amaliy faoliyatini samarali tashkil qilinadi. Turli fanlarning o'quv materiallari bilan integratsiyani ta'minlash orqali kimyo, geografiya, fizika, matematika, informatikadan o'zlashtirgan bilimlarini biologik ob'ekt, biologik jarayonlar bilan bog'lay olish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchida amaliy ko'nikmalarni rivojlanishiga imkon beradi. Quida e'tiborlaringizga bir necha misollarni taqdim etamiz: 1. Nima uchun tuxum uzoq vaqt pishirilsa sariqligi kulrangga aylanadi?



Javob: (Ushbu hodisaning sababi shundaki, sarig'ida ko'p miqdordagi temir ionlari mavjud. Issiqlik bilan ishlov berish uzoq vaqt davomida ba'zi oqsillarning parchalanishiga olib keladi, vodorod sulfidi ajralib chiqadi. Kulrang – qora temir sulfid birikmalarini hosil qilish uchun oz miqdordagi vodorod sulfidi etarli bo'ladi).

2. Nega qishda odam ko'p esnaydi?


Javob: (Sovuq qish havosida kislorod kam bo'ladi, qon quyurqlashadi, qon oqimi sekinlashadi, yurak va qon tomirlarining ishi kuchayadi, charchoq, bosh og'rig'i va esnash kuzatiladi.)[5].

O'simliklar ildizining mineral oziqlanishiga doir mavzularni o'rganishda fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish uchun kimyoviy elementlar va





ularning xususiyatlarini, tuproqning fizik xossalariga oid ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.



Loyiha ishing asosiy g'oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishdir.

O'quv-loyiha ishida o'quvchi:

- mustaqil fikr yuritishi
- muammoni anglashi
- muammoni hal etish yo'llarini izlashi
- avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanishi
- natijalarni bashorat qilishi
- turli yechimdagi variantlar ishlab chiqishi
- sabab-oqibat bog'lanishlarini tasavvur qilishi zarur.

O'quv-loyiha ishida: 1. loyiha toifasi, mavzusi va qatnashilar sonini aniqlanadi; 2. loyiha muammosi, predmeti, vazifalarini aniqlanadi. 3. loyiha qatnashchilari uchun topshiriqlar tuzish va uni a'zolar o'rtasida taqsimlanadi; 4. loyiha yuzasidan o'quvchilarning mustaqil izlanishlarini tashkil etiladi; 5. loyihadan kutilgan natijalarni aniqlanadi, uni rasmiylashtiriladi va taqdimotni belgilanadi; 6. loyiha ishini yakunlanadi, baholash mezonini va xulosalar yasash yo'llarini aniqlanadi.

Ilmiy tadqiqotni rejalashtirishda 1. Tadqiqot mavzusini tanlanadi.

2. Tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniqlanadi.

3. Tadqiqot obyekti va predmetini belgilanadi.

4. Tadqiqot metodlarini belgilanadi.

5. Ma'lumotlar to'plash, kuzatish, tajribalar o'tkaziladi.

6. Tadqiqotdan kutilgan natijalarni baholanadi, xulosa qilinadi[5].

Shunday qilib, eng yaxshi ta'lim strategiyasi nazariy va amaliy faoliyatning sog'lom aralashmasidir. Ta'lim o'sib va rivojlanib boradigan jarayonda



ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasida; o'quvchining faol tabiati va ongli intizom talablari o'rtasida; maktab va oila o'rtasida ; tashqi ta'sirlar va o'quvchining ichki intilishlari o'rtasida; so'z va ish o'rtasida qarama-qarshiliklar bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Ж.О.Толипова, А.Т.Ғофуров / Биология ўқитиш методикаси/ Тошкент. "Iqtisod moliya" 2007
2. Kairullayevna R. A. (2021). Modern pedagogical technologies used to identify Gifted students in biology teaching. *European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA)*, 2(10), 211-214.
3. Рахматуллаева А. К., & Мардонов, Ш. (2021). Биология дарсларида ўқувчиларнинг биологик иқтидорини ривожлантиришнинг назарий асослари. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 2), 68-74.
4. Рахматуллаева А. Қ. (2020). Биология фанини ўқитиш жараёнида лаборатория машғулотларининг аҳамияти. *Academic research in educational sciences*, (3), 120-129.
5. Абдужабборов С., & Рахматуллаева, А. (2022). Biologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 12-15

РЕЗЮМЕ

Biologiya o'qitishda o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etishda ularda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Amaliy faoliyat o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnoma yoki maxsus ko'rsatmalar beriladi. Amaliy faoliyat - o'qish nazariy bilimlarni beradi, amaliy mashg'ulotlar esa nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qiladi. Nazariy bilimlar ma'lumotni tinglash tushunish uchun poydevor yaratadi. Amaliy tajriba bunga asoslanadi va bu poydevorni yanada mustahkamlaydi.

РЕЗЮМЕ

При организации практической деятельности учащихся по обучению биологии у них формируется умение применять теоретические знания на практике. Практическая работа проводится на занятиях или в естественных условиях. Практическая деятельность контролируется преподавателем, а при необходимости дается инструкция или специальные указания. Практическая деятельность-чтение дает теоретические знания, а практические занятия углубляют теоретические знания и формируют навыки применения на практике. Теоретические знания слушание информации создает основу для понимания. Практический опыт основан на этом, и это еще больше укрепляет фундамент.

SUMMARY

When organizing the practical activities of students in teaching biology, they develop the ability to apply theoretical knowledge in practice. Practical work is carried out in the classroom or in natural conditions. Practical activities are supervised by the teacher, and if necessary, instructions or special instructions are given. Practical activity-reading gives theoretical knowledge, and practical classes deepen theoretical knowledge and form practical application skills. Theoretical knowledge listening to information creates the basis for understanding. Practical experience is based on this, and it further strengthens the foundation.